

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR
BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMiy KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

INOMJONOVA SURAYYO XABIBJONOVNA

**O‘QUVCHILARNING IJODIY VA TANQIDIY TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISHDA FANTASTIK ASARLARDAN FOYDALANISH
METODIKASI (Bolalar adabiyoti misolida)**

13.00.02. – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии(PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctoral of philosophy(PhD)
on pedagogical sciences**

Inomjonova Surayyo Xabibjonovna

O'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda fantastik asarlardan foydalanish metodikasi (Bolalar adabiyoti misolida) 3

Иномжонова Сурайё Хабибжоновна

Методика использования фантастических произведений в развитии творческого и критического мышления учащихся (на примере детской литературы) 25

Inomjonova Surayyo Khabibjonovna

Method for using fantastic works to develop students' creative and critical thinking (Based on children's literature) 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

INOMJONOVA SURAYYO XABIBJONOVNA

**O‘QUVCHILARNING IJODIY VA TANQIDIY TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISHDA FANTASTIK ASARLARDAN FOYDALANISH
METODIKASI (Bolalar adabiyoti misolida)**

13.00.02. – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4479 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jurayeva Gulnoza Axmatovna

filologiya fanlari doktori, prof.v.b

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Valijon Abdurahmonovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Yusufjonova Nazokat Nig‘madjonovna

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ -raqamli reestr bayonnomasi).

Q.B.Yo‘ldoshev,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi,
ped.f.d., professor

Q.U.Pardayev,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi,
filol.f.d., professor

S.Ashirboyev,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari fan, ta'lim, madaniyat va ishlab chiqarish sohalariga ham o'zining tezkor ta'sirini o'tkazmoqda. Shu nuqtayi nazardan rivojlangan davlatlarda san'atning muhim turi sifatida adabiyot o'qitishda o'quv rejalarini yangilash, variativ dastur va darsliklar yaratish, ularning mazmunini davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirish, integrativ, differensial yondashuv hamda aralash ta'lim (blended-learning) imkoniyatlariga asoslanish dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, AQSh, Angliya, Kanada, Yevropa mamlakatlari ta'lim muassasalarida badiiy asar matni ustida ishlash muammolariga madaniy, til va shaxsiy aspektda yondashishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida adabiyotni san'atning boshqa turlari, aniq va tabiiy fanlar bilan aloqadorlikda o'qitish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Turli janr va mavzudagi asarlar mazmunini anglash, tushunish va idrok etish kompetensiyalarini shakllantirish orqali ta'lim oluvchilarni yaratuvchanlik ruhida tarbiyalash, analitik tafakkuri, ijodiy tasavvurlarini shakllantirish asosiy masala hisoblanishi o'z aksini topmoqda. Fantastik va sarguzasht asarlarni o'qitish tajribasini ommalashtirish orqali o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalar va shaxsiy nuqtayi nazarni rivojlantirish, asosli xulosalar chiqara olish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga taraqqiyotga erishish omili sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim oluvchilarni ilm-fanning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor qilish, intellektual salohiyatini yuksaltirish, kreativligini o'stirish, shaxsiy, ijtimoiy va estetik kompetensiyalarini rivojlantirish barobarida real hayot bilan aloqasini mustahkamlashga doir o'quv-biluv motivatsiyasini oshirishga muhim masala sifatida yondashilmoqda. O'quvchilarni o'zi o'zlashtirayotgan ma'lumotlar va berilayotgan materiallar kerakligini tushunish, ahamiyatligini his qila olishga o'rgatish asosiy talablardan hisoblanmoqda. Adabiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida "ta'lim va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq ekan"¹ligi ularning ma'naviy sifatlarini rivojlantiradigan, yangi bilimlarni izlab topishga, o'quv tadqiqotlariga qiziqtiradigan yo'nalish va mazmundagi asarlarni o'qitish bilan bog'liq zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llashni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari,

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 31-b.

2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tog‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari va boshqa mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda fantastika yo‘nalishidagi asarlarga xos xususiyatlar R.Ibrohimova, F.Salayev, R.Tulaboyeva, M.Obidjonovalar², bolalar adabiyotini o‘qitishda fantastik asarlarning o‘rni va ahamiyati S.Matchanov, M.Jumaboyev, G‘.Jahongirov, K.Turdiyeva, Q.Qahramonov, G.Jo‘rayeva, Z.Ibrohimova, S.Irisxo‘jayeva, B.Jamilova, R.Rajabova, N.Yarashovalar³, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali adabiy ta‘lim sifatini oshirish masalalari Q.Yo‘ldoshev, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, I.Nurmamatova, M.Asqarova, G.Mamatova, D.Muminovalar⁴ tomonidan tadqiq

² Иброхимова Р. Ўзбек фантастикасининг тараққиёт муаммолари. Фил. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2003. – 306 б.; Салаев Ф. Ҳозирги ўзбек илмий фантастик адабиётида инсон ва табиат муаммолари. Фил. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Нукус, 1993. – 146 б.; Tulaboyeva R. Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm. Fil. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019. – 152 b.; Обиджонова М. Инглиз ва ўзбек фантастик ҳикоячилиги: оригинал ва муштарак тенденциялар (Рей Бредбери ва Ҳожиакбар Шайхов ижоди мисолида). Фил. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – 147 б.

³ Matjon S. Bolalar adabiyotidan saboqlar. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022.; Жумабоев М. Болалар адабиёти. Дарслик. – Тошкент: ФАН, 1978. – 99 б.; Жаҳонгиров Ф. Ўзбек болалар фольклори. – Toshkent: Ўқитувчи, 1975. – 102 б.; Турдиева К. XX асрнинг 60-80-йиллар ўзбек болалар шеърлятида маънавий масалалари. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2013. – 130 б.; Қаҳрамонов Қ. Адабий танқид ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: ФАН, 1991. – 150 б. Жураева Г.А. Ўзбек болалар шеърлятида ҳажвия. Фил. фан. док. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2021. – 249 б.; Иброхимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 120 б.; Ирисхўжаева С. Болалар адабиётда дидактика. – Тошкент: ФАН, 1978. – 131 б.; Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Noshir, 2019. – 114 б.; Ражабова З. Ўзбек болалар адабиётда фольклор жанрлари стилизацияси (насрий эртақ ва топишмоқ мисолида) Фил. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Бухоро, 2020. – 143 б.; Ярашова Н. XXI аср ўзбек болалар адабиёти тили ва услубияти (Х. Тўхтабоев ижоди мисолида). Фил. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 147 б.

⁴ Йўлдошев Қ. Янгиланган тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 302 б.; Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.; Ниёзметова Р. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гуруҳлари мисолида). Пед. док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 242 б.; Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 306 б.; Ирисбаева М.Н. Таълим тарбия жараёнида тарихий миллий ва замонавий педагогик технологияларни интеграциялаш. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 138 б.; Асқарова М. А. Бошланғич

etilgan. O'quvchilarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish muammolari R.Mavlonova, B.Adizov, R.Ibragimov, M.Qulaxmetova, Ch.Shakirova, Sh.Nurullayeva, Z.Nishonova, A.Baltayevalar⁵ tomonidan tahlilga tortilgan.

Ta'lim oluvchilarning ilmiy-fantastik adabiyot namunalarini idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari, kichik yoshdagi o'quvchilarni kutubxonada o'qishga yo'naltirish, fantastik asarlar o'quvchilarning adabiy rivojlanishida muhim omil ekanligi kabi jihatlar MDH mamlakatlari olimlari: T.Shilo, G.Popova, V.Solomodenko, O.Vinogradova, V.Novikova, N.Markina⁶ tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

Xorijlik olimlar H.Bedir, B.Black, R.H.Ennis, A.Evers, P.Pardede, P.Stapleton⁷lar tomonidan amalga oshirilgan ishlarda o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar maktab adabiy ta'limida fantastik asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot rejasining

синф ўқувчиларида ўқиш ва матни тушуниш кўникмаларини ривожлантириш. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Наманган, 2020. – 144 б.; Мамагова Г.А. Бошланғич синф ўқиш дарсларида ўқувчиларда адабий тушунчаларни шакллантириш методикаси. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 135 б.; Муминова Д. Бошланғич синф ўқувчиларида китобхонлик кўникмаларини шакллантириш механизми. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Наманган, 2020. – 142 б.

⁵ Mavlonova R. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Voris nashriyot, 2013. – 160 b.; Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2003. – 298 b.; Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped. fan. dok. diss. – Toshkent, 2001. – 256 b.; Qulaxmetova M. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Sano-standart, 2011. – 140 b.; Shakirova Ch. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish asosida o'qitish samaradorligini oshirish. Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2009. – 142 b.; Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi. Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2007. – 136 b.; Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Psixol. fan. dok. ... diss. – Toshkent: 2005. – 302 b.; Балтаева А. Т. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни бадиий асар қаҳрамонларини танқидий баҳолашга ўргатиш технологияси. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 156б.

⁶ Шило Т.Б. Специфика изучения произведений фантастики в 5–9-классах средней школы. Дисс. ... канд. пед. наук. – Самара, 2007. – 150 с.; Попова Г.В. Изучение произведений фантастики как фактор литературного развития школьников (7–9 классы). Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Курск, –18 с.; Соломошенко В.Н. Особенности восприятия научно-фантастической литературы учащимися 5–8 классов и пути повышения активности руководства чтением в детской библиотеке. Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 1983. – 148 с.; Виноградова О.В. Педагогические условия повышения эффективности чтения подростками литературы фантастики. Дисс. канд. ... пед. наук. – Москва, 2002. – 136 с.; Новикова В.Г. Фантастическая новелла Рея Бредбери. Дисс. канд. ... филол. наук. – Нижний Новгород, 1992. – 160с; Маркина Н.В. Художественный мир Рея Бредбери: Традиции и новаторство. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2006. – 152 с.

⁷ Bedir, H. (2013). Reading and critical Thinking Skills in ELT Classes of Turkish Students. World Applied Sciences Journal, 21(10). – P. 436–1439.; Black, B. (2007). Critical Thinking – a tangible construct? Research Matters: A Cambridge assessment publication, 3. – P. 2–4. Ennis, R.H. (1987). A taxonomy of critical thinking dispositions and abilities. Evers.A. (2007).: Does discipline matter? Pedagogical approaches to critical tinkering in English for academic purposes (EAP) and economics. Unpublished master's thesis, Carleton University, Ottawa, Ontario, Canada. Pardede, P. (2015) A Priority. Agenda for Mental Revolution in Education: Developing Critical and Creative Thinking through Learning. In Proceeding Mental Revolution in Education for Human Karakter Building, – P. 104–121.; Stapleton, P. (2002). Critical thinking in Japanese L2 writing: Rethinking tired constructs. ELT Journal, 56. – P. 250–257.

“O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bolalar adabiyotini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini fantastik asarlardan foydalanib rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adabiyot darslarida fantastik asarlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish;

o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda fantastik asarlardan foydalanishning didaktik ta‘minotini ishlab chiqish;

ilmiy-fantastik asarlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish;

o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini fantastik asarlarni o‘qitish orqali rivojlantirish mazmunini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 2–9-sinflarida fantastik asarlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro, Namangan viloyatlari va Toshkent shahridagi maktablardan 798 nafar o‘quvchi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini umumta‘lim maktablari 2–9-sinflarida fantastik asarlarni o‘qitish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida qo‘yilgan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni hal etishda kuzatish, analiz, sintez, mantiqiy umumlashtirish, matematik-statistik tahlil, tanqidiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

adabiyot darslarida fantastik asarlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning maqsad, vosita, natija kabi pedagogik-psixologik imkoniyatlari ehtiyoj, moyillik, qiziqish bilan bog‘liq bilish jarayonlarining rivojlanganlik darajasini aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda fantastik asarlardan foydalanishning didaktik ta‘minoti internet saytlari orqali o‘qishlari kerak bo‘lgan asarlar ro‘yxatini o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos holda tanlab shakllantirish imkoniyatlarini yaratish asosida takomillashtirilgan;

ilmiy-fantastik asarlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish mexanizmi mutolaaga qiziqtirishga doir o‘quv dasturlari, dars, sinfdan tashqari o‘qish va to‘garak mashg‘ulotlarida ertak, hikoya va topishmoqlar yaratish bilan bog‘liq didaktik o‘yinlarni o‘zaro integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini fantastik asarlarni o‘qitish orqali rivojlantirish metodikasini “Karusel sharhi”, “Jigsav”, “Qarama-qarshi bahs”, “Minds Eye” (Aqlning ko‘zi) texnologiyalarini o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga tizimli qo‘llash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hammualliflikda Ijod maktablarining 8–9-sinf “Adabiyot” darsliklari yaratilgan;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fentezi, sarguzasht va ilmiy fantastik asarlarni to‘g‘arak mashg‘ulotlarida o‘rganish bo‘yicha mualliflik dasturi yaratilgan;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fantastik asarlarni o‘qitishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalaridan oliy ta’limda “Bolalar adabiyoti”, “Maktab ta’limida zamonaviy adabiyot” fanlarining o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo‘llanilgan usullar, ilmiy-nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalarga aloqadorligi, ko‘rsatilgan tahlil, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metod orqali asoslanganligi, xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bolalar adabiyotida fantastik asarlarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni asoslangani, soha mutaxassislarining fantastik asarlarni o‘qitishga doir qarashlari tadqiq etilgani, muammoga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgani, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda fantastik asarlardan foydalanish metodikasini takomillashtirishga doir yondashuvlar tizimlashtirilgani hamda ta’lim mazmuni samaradorligi aniqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda ilgari surilgan g‘oyalar, amaliy tavsiyalar “O‘qish”, “Adabiyot” darsliklarini yaratish, mustaqil va sinfdan tashqari o‘qish uchun asarlar tavsiya qilish, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish, fan dasturlarini yaratish, adabiyot o‘qitish metodikasiga oid qo‘llanmalar tayyorlash hamda o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida metodik tavsiya sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bolalar adabiyotini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini fantastik asarlardan foydalanib rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

adabiyot darslarida fantastik asarlarni o‘qitish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning maqsad, vosita, natija kabi pedagogik-psixologik imkoniyatlari hamda didaktik ta’minoti o‘quvchilarning bilish jarayonlari rivojlanganlik darajasini aniqlashtirish, internet saytlari orqali o‘qishlari kerak bo‘lgan asarlar ro‘yxatini o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos holda tanlab shakllantirish asosida takomillashtirishga doir takliflardan Ijod maktablarining 8-sinfi uchun “Adabiyot” darsligini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining 2023-yil 5-iyundagi 01-11-766-sonli ma’lumotnomasi). Natijada badiiy asarlar matni ustida ishlashga doir savol-topshiriqlar tuzish, fanlararo aloqadorlik, mavzulararo integratsiyaga asoslanish,

mustaqil ta'lim va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatlari ortgan;

ilmiy-fantastik asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish mexanizmi mutolaaga qiziqtirishga doir o'quv dasturlari, dars, sinfdan tashqari o'qish va to'garak mashg'ulotlarida ertak, hikoya va topishmoqlar yaratish bilan bog'liq didaktik o'yinlarni o'zaro integratsiyalash asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va xulosalardan Ijod maktablarining 9-sinfi uchun "Adabiyot" darsliklarini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining 2023-yil 5-iyundagi 01-11-766-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'qituvchilarning adabiyot o'qitish jarayonini samarali tashkil etishlariga doir individual, kasbiy va shaxsiy kompetentligi ortishiga erishilgan;

o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini fantastik asarlarni o'qitish orqali rivojlantirish metodikasi "Karusel sharhi", "Jigsav", "Qarama-qarshi bahs", "Minds Eye" (Aqlning ko'zi) texnologiyalarini o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga tizimli qo'llash orqali takomillashtirishga oid tadqiqot natijalaridan "Adabiyot" darslik-majmualari, o'qituvchilarga mo'ljallangan metodik qo'llanmalar yaratishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika Ta'lim markazining 2024-yil 5-apreldagi 01/11-1-101-son ma'lumotnomasi). Natijada 2-9-sinf o'quvchilarining tanqidiy tafakkurini shakllantirishga, badiiy asar tahlili orqali atrofida sodir bo'lgan voqealarga to'g'ri munosabatda bo'lish, mantiqli qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga doir intensiv usullardan foydalanilgan;

bolalar adabiyotini o'qitishda bola ruhiyati va qiziqishlariga uyg'un holda fantastik asarlar tanlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlarini tizimli shakllantirish, bolalar adabiyotini o'qitish tarixi, Sharq mutafakkirlarining ijodiy va tanqidiy fikrlashga oid qarashlari, pedagogik imkoniyatlari zamonaviy mutaxassislarining ilg'or g'oyalari bilan o'zaro uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid tadqiqot natijalaridan ИЖ-402104474 "bolalar adabiyoti.uz" elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 2024-yil 20-oktabrdagi № 04/1-4206 sonli ma'lumotnomasi). Natijada umumiy o'rta ta'lim tizimida bolalar adabiyotida yaratilgan fantastik asarlarni o'qitishdagi murakkabliklar va muammoli jihatlar qiyosiy-tanqidiy tahlil qilinib, aniqlik, to'liqlik, zamonaviylik, yoshiga moslik, ketma-ketlik kabi ilmiy metodik aspektlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot ishlarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 3 ta xorijiy ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 158 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining joriy etilgani, aprotatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Umumiy o'rta ta'limda fantastik asarlar o'qitilishining ilmiy-metodik asoslari”** deb atalgan birinchi bobida o'zbek bolalar adabiyotida fantastik asarlarni o'rganish pedagogik muammo sifatida tadqiq etilgan, adabiyot darsliklarida fantastik asarlar berilishining mavjud holati tahlilga tortilgan hamda adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlashda fantastik asarlarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritilgan.

Kichik maktab yoshidagi bolalar qiziquvchanligini ularning atrof-muhitni bilishga, o'rganishga bo'lgan harakatlarida ko'rish mumkin. Bola o'ynab turib ham olam sir-sinoatlari, sabablari, hodisalar va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni bilishga urinadi. Bu yoshdagi bolalar “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Qachon?”, “Nima orqali?” kabi savollarni berishlari tabiiy. Ular o'zlari ko'rgan narsalar haqida chuqur fikr yuritib, to'liq ma'lumotlar olishga intiladilar, mantiqiy fikr yurita oladilar. Metodist A.Boltayeva ta'kidlaganidek, “umumiy tanqidiy fikrlash savollar qo'yishdan boshlanib, yechilishi lozim bo'lgan muammolarni aniqlashni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar o'z tabiatlariga ko'ra, juda qiziquvchan bo'ladilar. Ularning nazari yangi narsaga tushishi bilan uning nima ekanligini bilishga ichki qiziqish paydo bo'ladi. Shu qiziqish ularda tanqidiy tafakkur uyg'onishiga turtki bo'ladi”⁸. Ta'lim jarayonida ular tafakkurini kengaytirish, mustaqil fikr olish ko'nikmalarini shakllantirish maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning eng muhim jihatlaridan biridir. Shu bois, adabiyot darslari, fakultativ, to'garak mashg'ulotlarini tashkil etishning yangicha usullarini topish va doimiy ravishda qo'llash o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. Kichik maktab yoshidagi ilk tasavvurlar ertak va hikoyalar to'qiyotganda, rasm chizayotganda paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur qiladilar. Bolalar o'zlariga tanish holatlar orqali yangi obrazlarni tasavvur etadilar. Natijada ularda qo'rquvni yengish, oldinga intilish, yangi kashfiyotlar qilish, do'st tanlash, xursandchilik hislari yuzaga keladi. Bolalar ko'pincha hayotda qiyinchiliklarga duch kelganlarida

⁸ Балтаева А. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни бадиий асар қахрамонларини танқидий баҳолашга ўргатиш технологияси. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 17-б.

xayolga beriladilar. O‘z tasavvurlari orqali hayot qiyinchiliklaridan chiqishga intiladilar. Bola tasavvur orqali dunyoni anglaydi, ijodiy layoqati rivojlanadi, bu esa shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyot o‘quv fani doirasida bu masalaning yechimini o‘quvchilarning yosh, psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda asarlar tanlash, mantiqiy xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan savol-topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va darslarda unumli foydalanishni taqozo etadi. O‘quv dasturlarida fantastik asarlarning berilishi, darsliklardagi didaktik ta‘minot mazmuni ularda ilgari surilayotgan g‘oyalarni o‘quvchilar to‘laqonli anglashlariga mo‘ljallangan bo‘lishi zarur. Adabiyotdan “Milliy o‘quv dasturi”da “mavjud pedagogik ashyolarda o‘quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan innovatsion usullardan foydalanish ko‘zda tutilmagan”⁹ligi muammo sifatida alohida qayd etilgan. “Milliy o‘quv dasturi” va yangi avlod darsliklari yaratilguniga qadar o‘quvchilarning fantastik adabiyotga nisbatan xohish-istaklari, qoniqishlari ta‘minlanmadi. Bu bo‘shliqni to‘ldirish zarurati umumta‘lim maktablarida fantastik asarlarni o‘qitish usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish, o‘quvchilar ijodiy va tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilgan savol-topshiriqlar tizimini yaratish, darslarda ulardan keng ko‘lamda foydalanish masalasini yuzaga chiqaradi. Fantastik asarlarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash barobarida fanlararo bog‘liqlik va integratsiyani takomillashtirish zarurati ham kelib chiqadi.

O‘z kamolotini yuksak cho‘qqida ko‘rishni istagan har qanday demokratik jamiyat oldida maktab ta‘limi, o‘qitish sifati yuqori o‘rinda turadi. O‘quv dasturlarini yaratish bilan bog‘liq muammolar e‘tiborda turmas ekan, ijtimoiy hayotning oldinga ilgarilay olishida qiyinchiliklar kuzatiladi. Professor Q.Yo‘ldoshev ta‘kidlaganidek, “Dastur tuzish, asar tanlash, soatlar miqdorini aniqlash, darsliklar va qo‘llanmalar yaratish, metodlar tanlash, metodikalar ishlab chiqish singari xilma-xil tadbirlar bosh maqsadga xizmat qilsagina foydali hisoblanadi. Shaxsni shakllantirish odamni kamolot yo‘liga solishdir. Bu yo‘lga kirgan odam bir umr o‘zini o‘zi tarbiyalaydi, kamolotga yetkazadi va bir umr ezgu ma‘naviy qadriyatlargagina amal qilib yashay oladi. Bunday odam uchun kamolotga intilish ichki ehtiyojga aylanadi”¹⁰. Demak, ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish o‘qituvchilarga bu borada zarur yo‘l-yo‘riqlarning yetishmasligi, zarur metodik tavsiyalarni ololmaslik, vaqt va o‘quv hajmi bilan bog‘liq bir qator muammolar borligi bilan asoslanadi.

Fantastik asarlar bolalarning tasavvurini rivojlantirish, ularni yangi ilmiy bilimlar va qadriyatlar bilan tanishtirishda samarali vositadir. Ularni o‘qitish orqali o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda quyidagi jihatlar muhim ahamiyatga ega:

⁹ Umumiy o‘rta ta‘limning “Adabiyot” fanidan “Milliy o‘quv dasturi”. – Toshkent: 2021. – 14-b.

¹⁰ Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 111-b.

1. **Bolalar tasavvurini kengaytirish:** fantastik asarlar orqali bolalar o‘zlarining real olamdan tashqari tasavvurlarini kengaytiradilar, bu esa ularda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

2. **Madaniy va milliy qadriyatlarni singdirish:** mahalliy an‘ana va qadriyatlarni fantastik asarlar orqali bolalarga singdirish milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolishga yordam beradi. O‘zbek xalq ertaklari va xalq og‘zaki ijodiyoti motivlaridan foydalanish bu yo‘lda muhim rol o‘ynaydi.

3. **Ilmiy va texnik bilimlarga qiziqish uyg‘otish:** fantastik asarlarda ilm-fan yutuqlarini bolalarga sodda tilda tushuntirish, kelgusida ilmiy sohaga qiziqish uyg‘otadi. Bu esa kelajak avlodning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

4. **Milliy qahramon obrazlarini yaratish:** fantastik asarlarga milliy qahramonlar obrazini kiritish orqali bolalar o‘z millati bilan faxrlanish hissini tuyadilar. Bu qahramonlar ularga ijobiy fazilatlarini namuna sifatida ko‘rsatadi.

5. **Didaktik vositalarni takomillashtirish:** fantastik asarlarni o‘qitishda turli interaktiv va ijodiy o‘yinlar, masalan, rolli o‘yinlar, muhokama va loyiha ishlari qo‘llanadi. Ular milliy metodika asosida bolalarning qiziqishini oshirish va bilimlarni chuqurlashtirishda samaralidir.

6. **Til va uslubiy o‘ziga xoslikni shakllantirish:** mahalliy mualliflarning fantastik asarlarida o‘ziga xos til va uslubiy elementlar qo‘llanadi. Ular bilan tanishtirish bolalarda adabiy did va o‘z ona tiliga mehr hissini uyg‘otadi.

Fantastik asarlarni o‘qitish bo‘yicha milliy metodika yaratish uchun o‘zbek mualliflarining asarlari, xalq ertaklari va milliy qahramonlar obrazlaridan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslanish muhim. Shuningdek, har bir yosh guruhiga mos bo‘lgan fantastik asarlarni tanlash va ularni o‘qitishda bolalarning yoshiga mos metodlarni qo‘llash kerak. Bu esa bolalar uchun qiziqarli va samarali ta‘lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Kitobxonlikni keng targ‘ib qilishda o‘zbek va jahon adabiyoti namunalaridan eng durdona asarlarni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga ko‘ra tanlash maqsadga muvofiq. Metodist S.Kambarovanning fikricha, “O‘qituvchi mutolaa uchun adabiyotlarni tanlab tavsiya qilishi, o‘z vaqtida asarlar ro‘yxatini yangilashi va mazmunini kengaytirib borishi, bunda har bir o‘quvchining yosh va individual xususiyati hamda qiziqishini hisobga olishi zarur. Negaki, qiziqish o‘rganilayotgan asar mohiyatini chuqurroq idrok qilishga yordam beradi”¹¹. Shu nuqtayi nazardan tadqiqot ishimizda o‘quvchilar sinfdan tashqari o‘qishlari mumkin bo‘lgan fantastik asarlar ro‘yxati sinflar kesimida taqsimlandi. Bunda fantastik asarlar 2–4-sinflarda fentezi (D.Abdurahimovanning “Burgut-pat”, “Ardoqli qiz”, T.G‘oyipovning “Parilar makoni”, M.Yo‘ldoshevaning “Buyuk sut daryosi”, Olloyorning “Fazogir chumoli” asarlari); 5–7-sinflarda sarguzasht-fantastika A.Obidjonning “Oltin yurakli Avtobola”, O.Mo‘min Xo‘janing “Pul tashuvchi mashina”, O.Husanovning “Tog‘da o‘sgan bola”, A.Lindgrenning “Mittivoy va Karlson”, F.Pulmanning “Oltin kompas”, H.Shayxovning “G‘aroyib tush”, M.Abdullayevaning “Ilmus sayyorasiga g‘aroyib safar”); 8–9-sinflarda

¹¹ Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Пед. фан. фалс. док. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2019. –13–14-б.

(A.Azimovning “Ular uchib kelisholmaydi”, J.Vernning “Sirli orol”, Tohir Malikning “Falak”, H.Shayxovning “Samo mahvaridagi namoyish”, “Shom kamari”, O.Yusupovning “Kichik Magellan bulutlari”, O.Mo‘min. Xo‘janing “Antiqa dunyo”) ilmiy fantastika ko‘rinishida taqdim etildi.

O‘quvchilarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, o‘qitish metodlaridan unumli foydalanishning o‘zi yetarli emas. Fikrimizcha, bu borada o‘quv dasturlari mazmuni ham ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi zarur. Yangilangan “Adabiyot” darsliklarida o‘quvchini ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltiruvchi topshiriqlar berishga harakat qilingan, lekin bu xorij darsliklari bilan solishtirganda kam foizni tashkil etadi. Biz ko‘rib chiqishga uringan xorij davlatlari darsliklarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar 21 foizdan yuqori¹². Har bir mavzudan keyin “Critical thinking” (Tanqidiy tafakkur) ruknida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi savol-topshiriqlar uzviy holda berilgan.

Ta’lim oluvchilar yozuvchi fikrini aniq tushunishlari, asar tilini tahlil qila olishlari muhimligi haqida so‘z ketganda E.Selikova shunday deydi: “o‘quvchilarni o‘z fikrlarini mantiqiy, ongli ravishda yetkazish va taqqoslashga o‘rgatish izchil aqliy mehnatga moyillikni rivojlantirish va ularni o‘rganilayotgan mavzuga asta-sekin, diqqatni jamlashga qodir qilishdir”¹³. O‘quvchi mavzu mohiyatini aniq tushungandagina diqqati jamlanadi. Buning uchun unga taqdim etilayotgan asar to‘liq tushunarli bo‘lishi va qiziqitira olishi kerakligi ta’kidlanadi.

S.N.Vaytulevichning fikricha, “Tanqidiy fikrlash ma’lumotni mantiqiy nuqtayi nazardan tahlil qila olish, asosli mulohazalar, qarorlar qabul qilish va olingan natijalarni standart va nostandart vaziyatlar, savollar va muammolarda qo‘llash qobiliyatini anglatadi. Tanqidiy fikrlash salbiy va tanqidiy bo‘lishni anglatmaydi, balki asosli mulohazalar va qarorlar qabul qilish uchun turli yondashuvlarni oqilona ko‘rib chiqishdir. Bu kontekstdagi “tanqidiy” so‘zi “tahlil” ma’nosini anglatadi. Tanqidiy fikrlash – bu yo‘naltirilgan fikrlashning bir turi, chunki u istalgan natijaga erishishga qaratilgan”¹⁴. Biz ham tanqidiy fikrlashni insonning muammolarni aniqlash, ularning sabablarini topish, oqibatlarini oldindan ko‘rish va ularni hal qilish uchun muqobil farazlarni shakllantirish qobiliyati sifatida qaraymiz. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan o‘quvchi axborotni tahlil qilish, sintezlash va ishonchligini baholashni biladi. Fikrlashning bu turida uning muhim g‘oyalaridan biri ko‘plab to‘g‘ri javoblar bo‘lishi mumkinligidir. Tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning muhim xususiyati – o‘quvchilarning xato qilish erkinligi. O‘quvchi qancha ko‘p xato qilsa, u muammo nima ekanligini aniqlaydi; muammolarga boshqa tomondan qarashni o‘rganadi; yechimning samarasiz usullarini aniqlaydi hamda muayyan xulosaga keladi.

Tadqiqot ishimizda tanqidiy tafakkurning quyidagi asosiy komponentlariga tayanib ish ko‘rishni maq‘ul topdik:

¹² Clencoe Literature: The Reader’s Choice. Course 4 edition published in 2007, openlibrary.org -1381p.

¹³ Целикова Е. И. Эволюция типов школьного анализа литературного произведения (XIX начало XX в). – Улан-Уде: Издательство Бурятского госуниверситета, 2000. – С. 24.

¹⁴ Вайтулевич С.Н. Михайлова Т.В. Петрова К.О. Сущность и пути развития критического мышления преподавателя высшей школы // Современные наукоемкие технологии. – 2008. – № 9. – С. 70.

Tahlil qilish: ma'lumotlar va g'oyalarni alohida qismlarga bo'lish, ularning xususiyatlarini o'rganish va tushunish.

Baholash: dastlabki fikrlarni yoki dalillarga asoslangan qarorlarni muhokama qilish va baholash. Bu bosqichda muqobil variantlar ko'rib chiqiladi.

Raqobat: o'z fikr va g'oyalarni tahlil qilish jarayonida boshqalar bilan muloqot qilish va fikr almashish.

Qaror qabul qilish: tahlil va baholashdan so'ng eng yaxshi yoki eng ma'qul variantni tanlash. Bu jihatlar o'quvchilarning turli hayotiy va ilmiy vaziyatlarda to'g'ri xulosa chiqarish va muammolarni hal qilishida muhim rol o'ynaydi.

Bolalar va yoshlarning "past sifatli" asarlar o'qishga moyilligi pedagoglarni hamisha tashvishga solib keladi. O'tgan asrning boshlaridanoq o'quvchiga yoshi, qiziqishi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda asarlar taqdim etib borish masalasi ko'rib chiqila boshlangan. Sarguzasht asarlar o'quvchini taassurotlarga boyligi bilan hayajonga solsa, fantastik asarlar turli vaqtda, turli holatda voqealarning ro'y berishi bilan qiziqarli. Detektiv asarlar esa noma'lum tenglama. Uning yechimi o'quvchidan so'raladi. Bunday serqirra asarlarda tenglama har doim o'quvchiga yetkazilgan ma'lumotlar asosida yechilishi mumkin. Masala yechimida esa, aqlning ma'lum burilishlari talab etiladi.

Bugungi kun pedagogikasi oldida turgan muhim muammolardan biri o'quvchilarga qanday asarlarni o'qitish kerakligini aniqlab olishdan iborat. Hanuzgacha pedagog va metodistlar o'rtasida o'quvchilarga taqdim etilayotgan va taqdim etilajak asarlar bo'yicha maxsus so'rovnomalarning o'tkazilmaganligi buning sababi sifatida qayd etish mumkin. Jahonning ko'plab rivojlangan davlatlarida o'tgan asrning boshlaridayoq bunday so'rovnomalarni amalga oshirilganini ko'rish mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda xorij tajribalariga ehtiyoj yuqori. O'quvchini tanqidiy fikrlashga yo'naltiruvchi asarlarning darsliklardan o'rin olishi, bu borada savol-topshiriqlar ko'lamini kengaytirish zarurati davr talabiga aylanmoqda. Turli axborotlar almashinuvining tezligi, kompyuter texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, texnika rivoji, istalgan ma'lumotni olish imkonining kengligi umumta'lim maktablari o'quv fanlari hamda yaratilayotgan o'quv dasturlarining taraqqiyot bilan uyg'unlikda rivojlanishni taqozo etmoqda. Metodist Q.Husanboyeva tomonidan "Bugungi o'quvchi bilgan narsalarning ayrimlarini o'qituvchi bilmasligi ham rad etib bo'lmaz haqiqat"¹⁵ ekanligi to'g'ri qayd etilgan.

Zamonaviy metodika o'quvchi imkoniyatlarini to'g'ri baholash bilan birga o'qituvchidan ham kreativ bo'lishni, o'z fanini yaxshi bilishni va faniga aloqador yangiliklardan doimiy xabardor bo'lib borishni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga doir fantastika yo'nalishidagi asarlarni quyidagicha berish maqsadga muvofiq:

1. 2–4 sinf o'quvchilari o'z tajribalarida ko'rilmagan vaziyatga tushganlarida mustaqil fikrlay boshlaydilar. Ko'proq bilishga bo'lgan xohish ularda kuchayadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishda ertaklarning o'rnini

¹⁵ Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Ikkinchi kitob. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 333-b.

beqiyos. Ular dunyoni, yaxshi-yomonni farqlashni mana shu ertaklar orqali o‘rganadilar. Ertaklar faqat odob-axloqqa o‘rgatib qolmasdan, o‘quvchilar tanqidiy tafakkurini oshirishga xizmat qilishi kerak. Bunday yoshdagi o‘quvchilarga fentezi yo‘nalishida yozilgan ertaklarni tavsiya qilish orqali o‘quvchilarda yaratuvchanlik, o‘z bilim va tajribalari darajasida yangi g‘oyalar o‘ylab topishga erishish mumkin.

2. 5–7-sinf o‘quvchilarida sarguzashtlarga moyillik o‘ta yuqori bo‘ladi. Bu vaqtda ularda mustaqil fikr yurita olish va xulosalar chiqarish shakllanib boradi. Ular asarlarni o‘zlari o‘qiydilar, mantiqiy xulosalar chiqaradilar, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydilar. Bu yoshdagi o‘quvchilarga sarguzasht fantastik asarlar taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

3. 8–9-sinf o‘quvchilarida aniq va ijtimoiy fanlardan olgan bilimlari mustahkamlanib boradi hamda ularni yaxlit holda uyg‘unlashtirishga ehtiyoj seziladi. Bu ehtiyojni adabiyot darslarida ilmiy fantastika yo‘nalishidagi asarlar bilan qondirish mumkin. Badiiy matn tahlili, obrazlar va asar tilini tushunish ularda murakkabliklar tug‘dirmaydi, kelajak rejalarini tuzish uchun ham yaxshigina imkoniyat paydo bo‘ladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Fantastik asarlarni o‘qitish vositasida o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan. Unda 2–4-sinflarda fentezi yo‘nalishida yozilgan asarlarni o‘qitish usullari; 5–7-sinf o‘quvchilariga sarguzasht fantastik asarlar o‘qitishda qo‘llanadigan ta‘lim texnologiyalari hamda 8–9-sinf o‘quvchilariga ilmiy fantastik asarlarni o‘qitishda integrativ yondoshuvdan foydalanish masalasi yoritilgan.

Fentezi inglizcha “fantaziya” – sehrlil elementlarni qamrab olgan fantastik yo‘nalishlardan biri. U ko‘proq mifologiya va folklorda uchraydi. D.Nasriddinov uni quyidagicha izohlaydi: “fentezi o‘zining namoyon qilishdagi xususiyatlarida dastlabki o‘rinda sehrgarlik, ertak va afsona motivlarini qamrab olgan. Shu jihatdan afsonalarda paydo bo‘luvchi mifologik obrazlar fentezining asosiy qurolidir”¹⁶. Fentezi talablariga ko‘ra unda tasvirlanayotgan voqelik real hayotdan ancha uzoqda kechadi. Bu xayolan kashf etilgan dunyo bo‘lib undagi barcha voqealar sirli, vaqt ham boshqacha aks etishi, hayvonlarning insonlardek gapirishi, turli tasodiflarning noodatiy aks etishi bilan bolalarni o‘ziga jalb qiladi. Fentezi asarlar faqat sarguzashtlardan iborat bo‘lib qolmay, unda hayotning chuqur falsafiy tomonlari ham aks etadi. Fentezi asarlar bilan tanishib bo‘lingandan so‘ng o‘quvchilarni xayolparastlikka yo‘naltiruvchi “Siz nima qilgan bo‘lardingiz” kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchini ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Masalan, “Siz o‘tmishga tushib qolsangiz...”, “Siz kelajakka borib qolsangiz...”, “Siz koinotga yolg‘iz borib qolsangiz...”, “Hammamiz boshqa sayyoraga borib qolsak...” kabi fantaziyasini boyitishga xizmat qiluvchi savollar berish bilan ham ularni ijodiy faoliyatga yo‘llash imkoniyati ortadi. Fantastik tasavvur orqali tashqi dunyodagi jismoniy qiyinchiliklarga yechim topish mumkin. Bunda qiziqarli dialoglar tuzish, simvollar bilan ishlash (belgili kartalar yasash, iqtibos olish, ertaklar yozish), ertak ramzlarini yasash, iqtiboslar olish kabi usullardan foydalanish samaralidir. Mazkur

¹⁶ Nasriddinov D. Fentezi va fantastik asarlar mikroolami // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – Тошкент, 2019. – № 4. – В. 206.

bobda 2–4-sinf o‘quvchilarining tanqidiy va ijodiy tafakkurini o‘stirishda quyidagi usullardan foydalanildi:

“Ertak davom etadi” usuli. Ushbu usul orqali o‘quvchilar ertakni to‘ldiradilar, uning davomi haqida o‘ylab ko‘radilar va tugal xulosaga keladilar. Masalan, 4-sinfda A.S.Pushkinning “Baliqchi va baliq haqida ertak“ ertak-dostonini o‘qib bo‘lgandan so‘ng o‘qituvchi sinfga quyidagicha murojaat qiladi: “Kelinglar, rostgo‘y, birovga ozor berishni istamaydigan baliqchi cholga yordam beramiz. Oltin baliq xafa bo‘lib dengiz ostiga sho‘ng‘ib ketdi. Endi ularni yarashtirishga harakat qilamiz”. O‘quvchilar bu muammoni hal etish uchun ertakning boshiga qaytadilar va tahlil asosida vaziyatga baho beradilar. Ertakning davomini to‘qiydilar.

“Ertaklar, lekin yangicha yo‘sinda” usuli. Bunda o‘quvchilar ertak qahramonlari, undagi voqealar o‘rnini almashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. O‘zlari ham ertakka yangilik qo‘shadilar.

Topshiriqlar: guruhlarda yoki oilaviy ertak tuzing, ertakni sahnalashtiring, kulgili dialoglar tuzing, savollar tuzing, ertagingiz uchun nom toping, yangi ertaklaringizni sahnalashtiring, ertakka mos topishmoqlar tuzing, ertaklaringizni nashr qiling, ertagingizni reklama qiling. Bunday topshiriqlar berish orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri kengayadi.

Guruhlarda ertak tuzing. Bunday topshiriq o‘quvchini ijodiy hamkorlikka yo‘naltiradi. Fikrlari guruhda muhokama qilinishiga erishadi. Muloqot qilish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Oilaviy ertak tuzing. Oiladagi hamkorlik, yaqinlarining fikri, ularning dunyoqarashi bilan tanishish, o‘zaro ishonch va mehrni mustahkamlashga olib keladi. Farzand va oila o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Ertakka mos topishmoqlar tuzing. Ertak voqealarini yoki undagi buyumlarni bildiruvchi topishmoqlar tuzish ham o‘quvchini mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Topishmoqlar o‘quvchi tuza oladigan tarzda matn yoki she‘riy tarzda bo‘lishi mumkin.

Ertaklaringizni nashr qiling. O‘quvchilar o‘zlari yozgan ertaklarini nashr etadilar. Bunda oddiy daftardan yoki gazeta chiqarishga moslashtirilgan qog‘ozlardan foydalanishlari mumkin. Bu ularning ijodkorligi va tanlovlariga bog‘liq. O‘quvchilar tuzgan ertaklariga mos rasmlarni ham aks ettiradilar. Bunda ularning ijodkorligi va faolligi yanada ortadi.

Ertagingizni reklama qiling. O‘quvchilar o‘zlari yozgan ertaklarini audio, video, ochqichlar ko‘rinishida reklama qilishlari mumkin.

“Ertakdagi mo‘jizalar o‘yini”. Ushbu o‘yinda o‘quvchilar ertakda sodir bo‘ladigan mo‘jizalarni aniqlaydilar. Kutilayotgan mo‘jizalar haqidagi farazlarini aytadilar.

“Qay biri foydali?” O‘quvchilar ertak qahramonlariga yordam berishga harakat qiladilar. Dushmani qay yo‘l bilan mag‘lub etish, muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘llarini axtaradilar. Ertakka mos ashyolar, masalan, tez yuguruvchi etik, sehrlil qilich, sehrlil kalit, yig‘iladigan dasturxon kabi yangi vositalarni ertakka olib kiradilar.

Ramzlar asosida ertak yaratish. O‘quvchilar o‘zlari tayyorlagan ramzli xaritalar va asardan olgan iqtiboslardan foydalangan holda yangi ertak tuzishlari mumkin bo‘ladi. Bunda xaritalar cheklab olinadi, qolgan yo‘nalishlar sekin-astalik bilan qo‘shib boriladi. Bu usul birgalikda ertak ixtiro qilishga imkon beradi.

Quyidagi metodik tavsiyalar fentezi asarlarni o‘qitishni yanada qiziqarli qiladi:

1. Matnni kontekstual tahlil qilish. O‘quvchilarga fentezi asarining kontekstini tushuntirish, undagi voqealar va belgilarni real hayot bilan bog‘lash tavsiya etiladi. Asardagi voqealar, muhit, belgilar va ularning o‘ziga xosliklarini o‘rganish orqali o‘quvchilar fentezi dunyosiga chuqurroq kirib boradilar.

Usul: badiiy asardagi voqealarni hozirgi zamon voqealari bilan solishtirish, asosiy mavzuni ochib berish uchun muhokama tashkil qilish.

